

LOQAYDLIK JAMIYAT ILLATLARINING ONASI

Fayzullo Musayev

Oriental universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada loqaydlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shaxs va jamiyat hayotidagi salbiy ta'siri yoritilgan. Loqaydlik insonlarning o'zaro munosabatlarida befarqlik, beg'amlik, muammolarga nisbatan beparvolik kabi ko'rinishda namoyon bo'lib, jamiyatda ijtimoiy illatlarning keng tarqalishiga zamin yaratishi tahlil qilingan. Shuningdek, loqaydlikning kelib chiqish sabablari, uning oldini olish yo'llari va fuqarolik pozitsiyasining ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Maqolada har bir fuqaroning ijtimoiy faolligi jamiyat taraqqiyotida muhim omil ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: loqaydlik, befarqlik, jamiyat illatlari, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyat, beparvolik, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy faollik, ong va tafakkur, ma'naviy inqiroz.

Korrupsiya degan ijtimoiy baloga qarshi kurashni O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri²³ Erkin Voxidov o'tgan asrning 80 chi yillaridayoq boshlab yuborganlar va jamiyatning bunday xavfli kasaliga qarshi muolajani nimadan boshlash keragini ham tushuntirganlar: ...Ishondim, dunyoga kelgan kunidan. Bashari izlamabdi besabab iloh. Men bugun ko'rqmasman din afyunidan, Xudosi yo'qlardan qo'rqaman biroq.

Mana, u qarshimda o'ltirar hozir,
Qalbida xis, ko'zda ma'nosi yo'qdir.
Bersang, bu dunyoni yutmoqqa qodir,
Chunki yuragida xudosi yo'qdir.
Shohmi u, gadomi, kulolmi, zargar,
Yo'lga solgan chog'i shayton nidosi,
U qaysi taftishdan qo'rqadi, agar

Qo'rqmoqqa bo'lmasa dilda xudosi?!.. (Maksim Gorkiy bilan suhbat. 1982 y.)
Xalq nasibasini o'marib, Shvesariyaga ko'mib, ko'milyotganlarga Xudo o'zi insof bermasma, korrupsiyaga qarshi kurashdagi har qanday urinish besamar bo'lib qolaveradi. Chunki bu ishning boshida har bir kishining va, umuman, barchaning

²³ Shoir degan so'z arabcha. Uning o'zbekcha ma'nosi sezgir degani

nasibasini belgilovchi Oliy Hakamning o'zi turipti; demoqchimanki, Xudoning xoxishi shundoq Sababi shuki, o'zimiz shunga loyiqmiz, balki, arzimasmiz xam. Xudoni xaqqi ma'rifat ila tanimaymiz, Balki tan olmaymiz. Buyruqlarini bajarmaymiz, yoki chin dildan bajarmaymiz. Riyokorlik qilamiz, ishda xam, ibodatda ham. Xar kishi o'z ishini chin dildan, maxabbat bilay, holis fiysabilloh, bajarsak edi, albatta, yaratgan qodir Egam ham o'shalarga insof bergan bo'lur edi. Zero, parvardigori olam adolat egasi, halqi nasibasini korrupsiyachilarga oldirib qoymadi, men bunga to'la aminman, ishonaman. To'g'ri, har kim qo'lidan kelgan, keladigan ish bilan shug'ullangani ma'qul. Lekin bu mavzuda hech kimimiz befarq bo'lmasligimiz, imkonimiz boricha, layoqatimiz yetgancha harakat qilishimiz, amalda kurashishimiz lozim. Qilmoqchi bo'lgan har bir ishimizda Yaratgan Egamiz madadkor bo'lishi uchun, avvalo, Parvardigor o'zimizga ato etgan barcha potensial imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz, ishga solishimiz, so'ngra yetmaganiga Xudodan madad so'rashimiz o'rinli bo'ladi. Mana bu ish esa, o'zini musulmon sanagan har bir kishining kuniga 40 marta Allohga "O'zingga-gina qullik qilamiz, o'zingdan-gina yordam so'raymiz" deb va'da berishiga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun jamiyatimizning har bir fuqarosi, ya'ni har birimiz doimo hushyor bo'lishimiz lozim va xech qachon befarq bo'lmasligimiz kerak. Sherigimiz hamyonini kissavur (kissa ur) kesib ketayotganini ko'ra turib, indamasak, reaksiya qilmasak, o'zimizga nisbatan ham shu ish takrorlanishi aniq. Demak, jamiyatdagi o'g'rini ham, poraxo'rni ham, qo'yingki, korrupsiyachini ham jamiyat a'zolarining o'zi, ularning illatga nisbatan befarqligi yaratadi. Maqtalayotgan Amerika, Germaniya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlarning fuqarolari haqida eslab, ular sigaret qoldig'ini urnaga tashlashlari, duch kelgan joyga tashlamasliklari, shunday qilganga nisbatan befarq emasliklari haqida ko'pchiligimiz necha bor eshitganmiz, albatta. Demak, ular jamiyatdagi har bir illatga nisbatan ana shundek mavqe tutishadi va jamiyat sog'lom turadi. Birovni tartibga chaqirmoqchi bo'lgan, avvalo, o'zi tartibli bo'lishi lozim. Xo'sh, biron tamiz shunday bo'lay dedikmi?!

Har ishda, avvalo, niyat e'tibor, albatta. Niyat, shu niyat yo'lida amal, ya'ni sa'yu xarakat va Yaratgandan "maqsadimga yetishimga O'zing yordam ber" degan chin dildan tilak, duo, zikr qilishimiz doimiy hamrohimizga aylanishi kerak. Zero, "qay birimiz amalda yaxshiroq ekanimiz" ni sinalmoq uchun yaralganmiz va bunda shariat va o'z xohishimiz bilan demokratik usulda yaratganimiz davlat qonunlari

tomonidan o‘rnatilgan chegaralarga rioya qilishda ularga nisbatan parhezkorrok, ya’ni taqvodorroq bo‘lishga undalganmiz.

Shoir "Chumoli" nomli sherida insonga ishoch bildirib uning mehnat faoliyatining asl maqsadi "...elning xirmoniga qo‘shmoq uchun don..." deydi, "...elning xirmonidan yulmoq uchun don..." emas. Bu qalbi toza, dili pok, halol, qilgan zarra yaxshiligining ham yomonlikning ham javobi albatta Dunyoda ham Oxiratda ham qaytarilishidan umidvor bandaning xulqi va sifatidir. Butun mehnatkash xaqqimiz dehqondan kosibgacha, ishchidan madaniyat xodimigacha, quruvchidan go‘rkovgacha el ehtiyojiga marham bo‘lish yo‘lida xizmat kiladi. Jamiyat a’zolarining hammasi ham shunday deya olmaymiz. Ularning bir qismini "... elning xirmonidan yulmok uchun don..."ni niyat lganlar tashkil etadi. Ana o‘shalarga nisbatan boshqalarimiz befarq bo‘lmasligimiz talab etiladi. Chunki jamiyat a’zolarining befarqligi va loqaydligi shu jamitdagi barcha illatning vujudga keltiruvchi omildir.

Qaysi bir jamiyatda uyushgan jinoyatchilik Korrupsiya bor ekan, demak, shu jamiyatning unga nisbatan befarq va loqayd har bir a’zosi, ma’lum bir ma’noda, sherikdir.

Yana bir fikr. Shu yurtida tug‘ilib, o‘sib ulg‘ayib, o‘qib o‘rganib, yaxshi mutaxasis bo‘lib yetishganda, ota yurtida o‘z xalqiga xizmat qilish o‘rniga chet ellarga ketib, yoki o‘sha yoqda qolib ketayotgan vatandosh birodarlarimizning mavqeyini oqlamayman. Gap yaxshi joyda yashashda emas, yashash joyimizda ana shunday yaxshi sharoitni vujudga keltirishimizdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojov, O. O., & Arabov, B. (2020). Politics Of Uzbekistan In Solving Border Problems In Central Asia. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 2(11), 15-20.
2. Isomiddinovich, A. B. (2024). KORRUPSIYA VA UNING MANBALARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G ‘OYALAR, 1(1), 337-340.
3. Isomiddinovich, A. B. (2024). COOPERATION OF STATE AND PUBLIC INSTITUTIONS IN THE FIGHT OF CORRUPTION. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 6(06), 52-54.

4. ARABOV, B. (2024). Mechanisms for effective anti-corruption in Central Asia.

5. Арабов, Б. (2024). Эффективные механизмы борьбы с коррупцией в Центральной Азии. Общество и инновации, 5(3), 200-204.

6. Арабов, Б. И. (2024). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА КОРРУПЦИЯНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. XXI Asr: Fan va ta'lim masalalari (XXI Век: Вопросы науки и образования), 1, 132-145.

7. Sirojov, O., & Arabov, B. (2022). Uzbekistan-Afghanistan Cooperation: Need, Opportunity and Prospects. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(5).

